

Nodirbek G‘oibnazarov

nodirbekgoibnazarov@gmail.com

Guliston davlat pedagogika instituti talabasi.

ANOTATSIYA: Davrlar almashishi bilan yer yuzida kuch markazlari bir nuqtadan boshqasiga o‘tib turadi. Dastlab Rim imperiyasi, so‘ngra Vizantiya, Arab xalifaligi, Saljuqiylar, Mo‘g‘ullar imperiyasi, Temur imperiyasi, Usmonli imperiyasi, Britaniya imperiyasi, SSSR va AQSH boshchiligidagi Atlantika alyansi. Bularning barchasi o‘z vaqtida dunyoning siyosiy, madaniy va mafkuraviy markazi vazifasini o‘tagan. Bugungi maqolamizda XXI asrda navbatdagi siyosiy markazni o‘rganishga harakat qilamiz.

Kalit so‘zlar: Atlantik alyans, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi, tarixiy anomaliya, Xitoy, Hindiston, Rossiya.

KIRISH: Xalqaro munosabatlarda atlantizm, g‘arbchilik va yevroosiyolik kabi geosiyosiy yondashuvlar, ayniqsa, 1990-yillardan keyin faol muhokama qilindi va muhokama qilinmoqda. 1990- yillar boshlarida SSSRning qulashi ortidan dunyoda bir qutbli tizim shakllandi. Shu davr mobaynida geosiyosiy markaz AQSH boshchiligidagi Atlantik alyans bo‘ldi. G‘arbchilik yoki dunyoni G‘arbga yo‘naltirish hali ham o‘z qiymatini saqlab qolgan yondashuvdir. Boshqa tomonidan, Atlantika o‘z kuchini yo‘qotgani va yangi geosiyosiy markaz Osiyo ekanligi tobora ko‘proq aytilmoqda. 2000-yildan keyin Osiyoning bazi yirik davlatlari juda tez rivojlana boshladi. Xususan, Xitoy eng katta bozor va dunyoning kreditori darajasiga yetdi. Berlinda ham, Londonda ham XXI asr Osiyo asri bo‘lishi va yuksalayotgan Osiyo bilan munosabatlar qanday shakllantirilishi muhokama qilinmoqda. “Germaniya tashqi siyosati markazi” kabi ko‘plab tahlil va strategiya markazlari bu masalaga uzoq vaqt davomida e’tibor qaratgan. Atlantika, Yevropa va Osiyo o‘rtasidagi

Modern education and development

munosabatlarda qanday geosiyosiy yondashuvni qo'llash kerakligi ko'p jihatdan muhokama qilinmoqda.

Osiyo qit'asini geografik jihatdan belgilashda turlicha yondashuvlar mavjud. Ammo, umuman olganda, Osiyo qit'asi oltita mintaqaga bo'lingan: Shimoliy Osiyo (Ural tog'laridan okeangacha), Markaziy Osiyo, G'arbiy Osiyo (Yaqin va O'rta Sharq), Janubiy Osiyo (Afg'oniston, Pokiston, Hindiston va boshqalar), Sharqiy Osiyo yoki Uzoq Sharq (Xitoy, Koreya va Yaponiya), Janubi-Sharqiy Osiyo yoki Osiyo Tinch okeani (Vietnam, Kambodja, Tailand, Indoneziya, Malayziya, Filippin va boshqalar). Ushbu mintaqalarning barchasida 50 ga yaqin mustaqil davlat mavjud bo'lib, ularning umumiyligi aholisi allaqachon 4,5 milliarddan oshgan. Hatto dunyo aholisining yarmidan ko'pini tashkil etuvchi bu raqamlar ham mintaqadagi salohiyatni anglash uchun yetarli. Qit'aning Dehli, Tokio, Jakarta, Dubay, Kuala-Lumpur, Mumbay, Seul, Shanxay, Karachi, Pekin, Guanchjou, Osaka, Dakka, Bangkok, Doha, Gonkong va Singapur kabi shaharlari dunyoning moliyaviy va savdo markazlariga aylandi. "Osiyo taraqqiyot banki" ma'lumotlariga ko'ra, butun Osiyo, butun dunyoga qaraganda tezroq o'smoqda va 2050-yilda jahon ishlab chiqarishining yarmidan ko'pi Osiyo hissasiga to'g'ri keladi. Ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda tom ma'noda zavod bo'lgan Xitoy pandemiya va 2020-yilda o'sish sur'atlari kutilganidan past bo'lishiga qaramay eksport rekordini yangiladi. Hindiston kun sayin yuksalib borayotgan dinamik iqtisodiyotga ega. Bu mamlakatlar barcha ishlab chiqaruvchilar uchun katta bozorlardir. 2020-yilda Germaniyaning avtomobilsozlik gigantlari Volkswagen jami savdolarining 41 %i, BMW 32 %i va Daimler 29 %i faqat Xitoyda tashkil etadi. Bundan tashqari, Xitoy va boshqa Osiyo mamlakatlarida jahon brendlarning savdo ko'rsatkichlari dunyoning boshqa mintaqalariga nisbatan doimiy ravishda oshib bormoqda va ularning aylanmasi nisbati yanada yuqori. Koreya va Yaponiya texnologiya mamlakatlari. Ularning yillik daromadi Koreyada 1,7 trln, Yaponiyada 4 trlnni tashkil etadi. Malayziya iqtisodiy farovonlik darajasi yuqori va texnologiya rivojlanayotgan islom davlatidir. Singapur va Indoneziya ham tez rivojlanayotgan davlatlar qatoriga kiradi.

Modern education and development

Nega biz Osiyo asriga kirdik? Sabablar ko‘p. Birinchi va eng aniq sabab, Osiyo asrining tabiiy progressiyadir. O‘tgan 2000 yillik jahon tarixiga nazar tashlasangiz, 2000 yil ichidan 1800 yili davomida dunyodagi eng yirik ikki iqtisodiyot doimo Xitoy va Hindiston bo‘lib kelganini ko‘rasiz. “The Economy of the Baburian Empire” nomli maqolamizda bu haqida ayim malumotlarni keltirib o`tgandik. Xususan, 1600-yilda dunyo YAIMining 25 %i Hindiston xissasiga to`g`ri kelishi keltirilgan. Faqat so'nggi 200 yil ichida Yevropa va Shimoliy Amerika ko'tarila boshladi va dunyo siyosiy va iqtisodiy markazi Yevrop va Amerikaga ko`chdi. So'nggi 200 yil davomida G'arb hukmronlik qilgan dunyo tizimi tarixiy anomaliyadir. XXI asrda dunyo normal holatga qaytayotganini ko'ramiz, Xitoy, Hindiston va boshqa Osiyo davlatlari yana dunyodagi eng yirik iqtisodlarga aylanadi. Lekin bugun G'arb, Osiyo asri kelishini hohlamayabdi. G'arbning Osiyo asrining kelishini qabul qilishni istamasligining tarkibiy sabablari bor. Tarkibiy sabab shundaki, G'arb o'tgan 200 yillik jahon tarixida hukmronlik qilgan va geosiyosiy makonning katta qismini egallagan. G'arb davlatlari ko'plab muhim xalqaro tashkilotlarni nazorat qilish uchun o'zlarining ulkan kuchlariga tayanadilar va bu ularga dunyo ustidan hukumronlik qilishga yordam beradi. AQSH tashkil topgan vaqtdan boshlab yuksaldi va ikkita jahon urushidan keyin vayron bo`lgan G`arbga yetakchi bo`ldi. Lekin G'arb davlatlarining qudrati pasaydi. Shunga qaramay G`arb xalqaro tashkilotlar orqali dunyoni nazorat qilishga urinmoqda. Eng yorqin misollar dunyoning ikki yirik va eng muhim iqtisodiy tashkiloti: Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon banki. Ular Ikkinchchi jahon urushidan keyin yaratilgan va AQSH uchun ajoyib yutuq edi. Ikkinchchi jahon urushidan keyin, taxminan, 1950-yillarda, Qo'shma Shtatlar dunyo aholisining 5% ni tashkil etgan bo'lsa-da, global yalpi milliy mahsulotning 50% ni tashkil etdi. Bugun esa 20 %ni tashkil etmoqda. Qisqa muddatda bu juda katta farq. Jo Bayden AQSh prezidenti etib saylanganidan keyin Xitoy, Rossiya va Putinga nisbatan aytgan keskin bayonotlari bu mamlakatlarda katta reaksiyalar uyg'otdi. Rossiya siyosatchilari uzoq vaqtdan beri ham AQSh, ham Yevropaga baho berishda juda ehtiyyotkor

Modern education and development

tildan foydalanishgan. Ular iloji boricha qarama-qarshilik uslubini afzal ko'rmaslikka harakat qilishardi. Biroq, AQSh hukumatining so`nggi 4 yildagi bayonotlari, Rossiyaning Osiyo mintaqasida AQSh va Yevropaga qarshi hamkorlikni kuchaytirishi kerakligiga ta'sir qildi. Shu nuqtayi nazardan, Xitoy, Hindiston va Rossiya o'rtasida 2021- yil mart oyida Moskvada bo'lib o'tgan uchrashuvlardan so'ng Rossiya Tashqi ishlar vaziri Sergey Lavrov 2021-yilning 22-23-mart kunlari strategik hamkor sifatida belgilangan Xitoya rasmiy tashrif uyushtirdi. Ushbu tashrif davomida hamkorlik, energetika va mudofaa tizimlarini rivojlantirishga oid ko'plab masalalar muhokama qilindi. Ulardan eng asosiysi Rossiyaning Xitoya gaz, neft va qurol sotishi bilan bog'liq masalalar edi. Bu sohada qandaydir natijalarga erishildi desak yanglishmagan bo`lamiz. So`nggi yillarda bu ikki davlat eng yaqin hamkorlarga aylanib ulgurdi. AQSh va Yevropaning Rossiya va Xitoya nisbatan uzoq vaqtidan beri joriy qilgan sanksiyalari har ikki davlatni ham yangi sheriklar topish va jahon bozorlariga chiqishning yangi yo'llarini izlashiga olib keldi. Rossiya va Xitoya qarshi joriy qilingan sanksiyalar bu davlatlarning kelajakda bloklarga aylanishiga yoki Osiyo, Osiyo-Tinch okeani jabhasini shakllantirishiga ham olib kelishi mumkin. Rossiya va Xitoy tarixiy ongi va geosiyosiy tajribasidan foydalanib, o'z mintaqasidagi mamlakatlarga murojaat qilmoqda. Asosiy sherik sifatida Hindiston, Turkiya va Eronni tanlashdi. Har uchchala davlat ham jahon siyosatida mavjud bo'lish uchun Yaqin Sharq va Afrikada, har xil vositalardan foydalanishdan o'zini tiya olmaydi. Juda yuqori iqtisodiy salohiyat va inson resurslariga ega, siyosiy muvozanatlarda hal qiluvchi omil bo'lgan Osiyo qit'asining dinamikasi xilma-xildir. Shuning uchun qit'aga nisbatan ishlab chiqiladigan geosiyosiy yondashuvlar, imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Osiyo mintaqasida hukmron kuchlar hisoblangan Rossiya va Xitoy ayni paytda Turkiya bilan barqaror hamkorlikni rivojlantirishga harakat qilmoqda. Bundan tashqari, Turkiyaning ochiq, dialogga asoslangan tashqi siyosat yondashuvi va iqtisodiy aloqalarda “1+1” tamoyili ham o'rinli taklif sifatida ko'rilmoxda. Bu Turkiyaning mintaqadagi faoliyati uchun ijobiy muhit yaratishga yordam beradi.

Modern education and development

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.G'oibnazarov. Geosiyosat fonida Markaziy Osiyoning ro'li. Analysis of world scientific views Internatioal Scientific Journal. 2023.
2. O'. G'aybullayev. Markaziy Osiyoning jahon geosiyosatida tutgan o'rni. Analysis of world scientific views Interational Scientific Journal.2023.
3. N.G'oibnazarov. The Economy of the Baburian Empire. International Interdisciplinary Research Journal.2023.